

# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> November, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

## MEDIKAMENTOZ ALLERGIYANING KLINIK XUSUSIYATLARINI STATISTIK TAHLIL QILISH.

Razikova I. S.,

To'laboyev S. O.,

Davlatov J. D.

Maqsudova.M. Sh

Respublika Ixtisoslashtirilgan Allergologiya Ilmiy Markazi

### Rezyume

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra dori allergiyasi allergik kasalliklarning ni tashkil etadi,Farmakologiyani rivojlanib borishi bilan dori allergiyasining uchrash darajasi ham ortib boryapti,Respublika Ixtisoslashtirilgan Allergologiya Ilmiy Markaziga ambulator murojat qilgan 130 nafar bemorning allergologik anamnezi to'liq o'rganilib,ambulator kartalari o'rganildi va laborator tekshiruv natijalari statistik tahlil qilindi.

**Kalit so'zlar:** Dori allergiyasi,anafilaktik shok,qavarchiqlar,kvinke shishi,dori vositalari,antibacterial vositalar,

### Dolzarbligi

Dori moddalari ta'sirida yuzaga kelayotgan allergik reaksiyalar zamonaviy tibbiyotning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.Hozirgi kunda nafaqat dori moddalarining soni,balki ularning organizmga ta'sir kuchi xam o'sib bormoqda.Yangi yuqori samarali dori moddalarini joriy etilishi davolash ishlarini yaxshilanishiga imkon berishi bilan birga organizmda bir qancha nojo'ya reaksiyalarni ham keltirib chiqarmoqda.mutaxassislarning ma'lumotlariga ko'ra dori moddalarini qabul qilgan kishilarning 10-20% dori moddalar keltirib chiqargan asoratlar kuzatiladi.O'zbekiston respublikasi sog'liqni saqlash vazirligining manbalariga qaraganda shifoxonaga qabul qilingan 10548 nafar bemordan 268 nafari dori moddalaridan kelib chiqqan asoratlarni davolash uchun yuborladi.Kasallikning o'sishining asosiy sababi allergik anamnezni to'g'ri



# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> November, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

baholamaslik,dori moddalarining ko'p miqdorda asossiz ravishda belgilash (polipragmaziya),aholini o'z o'zicha turli dori vositalarini shifokor ko'rsatmasisiz qabul qilish hamda bir biriga yaqin bo'lgan dorilarni belgilash hisoblanadi.


**Maqsad** Eng ko'p allergik reaksiya kuzatilayotgan dori guruhlarini hamda allergik reaksiyalarning qaysi klinik shakllari ko'proq uchrayotganligi va tashxis qo'yishda qaysi diaqnoz usuli ko'proq samaradorligini o'rganish.

**Ilmiy tekshirish metodi va materiali** Tekshiruvda Respublika ilmiy ixtisoslashtirilgan allergologiya markaziga murojat qilib kelgan 130 nafar bemorlar tekshirildi.Har bir bemordan to'liq allergologik va dori allergiyasi anamnezi o'rganildi,ambulator kartalar yig'ildi hamda allergologik tekshiruv natijalari o'rganilib statistik tahlil qilindi.

## Natija va tahlillar

Kuzatuvlar Respublika ixtisoslashtirilgan Allergologiya Ilmiy Markazida o'tkazildi. Respublika ixtisoslashtirilgan Allergologiya Ilmiy Markaziga murojaat qilgan bemorlarning ambulator kartalari retrospektiv tahlili amalga oshirildi.Tekshiruv davomida 130 nafar dori allergiyasi bilan og'rigan bemorlarning 93 (71,5%)-ayollar, 37 (28,5%) -erkaklarda uchraganligi aniqlandi. Shunday qilib, ayollarda erkaklarga qaraganda 2,5 marta ko'p uchrayotganligi aniqlandi.

Ayollar va erkaklarda dori allergiyasining uchrash darajasi



# Proceedings of International Educators Conference


Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> November, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

Bir dori guruhidan yuzaga kelgan allergiya 130 bemorlarning 62 tasida (bemorlarning umumiy sonining 46,3%) aniqlandi; ikkita dori guruhi – 27 bemor (20,7%), uchta dori guruhi - 14 bemor (11,5%), dori 4 guruh -12 bemor (9,2%), 5 va dori ko'proq guruhlar - 15 bemor (12,3%). Shunday qilib, asosan, bemorlar dori moddalarining 1 guruhiga ko'p allergik reaksiya kuzatildi – 46,7% hollarda va 2 va undan ko'p dori guruhlari uchun dori allergiyasi-53,3% kuzatildi.



Dori guruhlari bo'yicha to'liq o'rganilganda quyidagicha taqsimlanadi: Sefalosporin guruhi – 26.1%(34 bemor), NYaQV- 23% (30 bemor), sulfanilamid dorilar (SA) – 3% (4 bemor), mahalliy anestetik (ma) – 5,3% (7 bemor) (ulardan novokain uchun reaksiyalar 73,7% tashkil etdi; lidokain - 26,3%), Ftorsinolonlar guruhi – 3,8% (5 bemor), tetrasiklin – 6,1% (8 bemor), yod o'z ichiga olgan preparatlar – 2,3% (3bemor), penitsillin guruhi– 10% (13 bemor), har xil dori guruhlari - 13% (17 bemor),zamburug'ga qarshi vositalar 1,5% (2 bemor),streptomitsin 5,4% (7 bemor)

# Proceedings of International Educators Conference


Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> November, 2022

ISSN: XXXX-XXXX


Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

### Eng ko'p dori allergiyasini yuzga keltiruvchi dori guruhlari nisbati



Dori allergiyasining klinik kechish xususiyatlari o'rganilganda quyidagicha ko'rinishga ega bo'ldi.

### Dori allergiyasining klinik ko'rinishining uchrash darajasi



E- Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings



E-CONFERENCE SERIES

# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> November, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

## Xulosa

Tekshiruvlar davomida Respublika Ixtisoslashtirilgan Allergologiya Ilmiy Markaziga dori allergiyasi bilan murojat qilgan bemorlarda eng ko'p allergik reaksiya keltirib chiqarayotgan dorilar guruhi, eng ko'p qaysi klinik ko'rinishi uchrayotganligi aniqlandi. O'rganishlar natijasida hozirgi kunda eng ko'p allergik reaksiyani antibiotiklar (sefalosporinlar) keltirib chiqarayotganligi aniqlandi.

## Adabiyotlar ro'yxati

1. Vidal M.F., Abrami P., Lermeyez Dj. Anafilaksiya va idiosinkraziya. Press Med 1922;30:189-92
2. Kolxir.P.V. dokazatelnaya allergologiya-immunologiya.-M: prakticheskaya meditsina, 2010.—528 s.
3. Roy Patterson., Gremmer L.K., Grinberger P.A. Allergik kasalliklar: diagnostika va davolash. 2000.-768 s.
4. Shpeer. Aspirinli allergiya: klinik tadqiqod // Southern Med jurnal 1975;68:314-8
5. Stivenson D.D. Aspirinli astma bilan og'rigan bemorlarda desensibilizatsiya: alternativ terapiya // J Astma. 1983;20(1): 31-8
6. Dranik G.N. Klinik immunologiya va Allergologiya. LLC "Tibbiy axborot Agentligi, Moskva 2003
7. Klinik allergologiya. Tanlangan ma'ruzalar. Amaliy tavsiyalar L.A. Goryachkina, E.P. Terekhova, O.V. Sebekina, Moskva 2017.

